

## BUXORO VILOYATIDA AVTOTRANSPORT VOSITALARINING SONINI ORTISHI VA ULARNING ATMOSFERANI IFLOSLASHDAGI AHAMIYATI

**Fayzieva Flora Abdullaevna**

Buxoro davlat universiteti Ekologiya va geografiya kafedrası katta o'qituvchisi

[f.a.fayziyeva@buxdu.uz](mailto:f.a.fayziyeva@buxdu.uz)

**Farmonova Fotima Faxriddinovna,**

Buxoro davlat unversiteti 2-1 eko-20 guruh talabasi,

[ffarmonova1@gmail.com](mailto:ffarmonova1@gmail.com)

**Annotasiya:** Ushbu maqolada hozirda dolzarb muammolaridan biri Buxoro viloyatida avtotransport vositalarining sonini ortishi va ularning atmosferani ifloslashdagi ahamiyati va ularning atrof – muhitga shu bilan bir qatorda inson organizmiga ta'siri haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Atmosfera, biosfera, litosfera, gidrosfera, chiqindi gazlar, smog, REM, fotokimyoviy smog, gazlar emissiyasi, biogeologik sikl.

## INCREASING THE NUMBER OF CAR TRANSPORT VEHICLES IN BUKHARA REGION AND THEIR SIGNIFICANCE IN ATMOSPHERIC POLLUTION

**Fayzieva Flora Abdullaevna**

Senior lecturer of the Department of Ecology and Geography of Bukhara State  
University

[f.a.fayziyeva@buxdu.uz](mailto:f.a.fayziyeva@buxdu.uz)

**Farmonova Fatima Fakhreddinovna,**

Bukhara State University 2-1 eco-20

group student,

[ffarmonova1@gmail.com](mailto:ffarmonova1@gmail.com)

**Abstract:** In this article, one of the current problems is the increase in the number of motor vehicles in the Bukhara region and their importance in polluting the atmosphere and their impact on the environment as well as on the human body.

**Key words:** Atmosphere, biosphere, lithosphere, hydrosphere, waste gases, smog, REM, photochemical smog, gas emission, biogeological cycle.



## УВЕЛИЧЕНИЕ ЧИСЛА АВТОТРАНСПОРТНЫХ СРЕДСТВ В БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ В ЗАГРЯЗНЕНИИ АТМОСФЕРЫ

**Файзиева Флора Абдуллаевна**

Старший преподаватель кафедры экологии и географии Бухарского  
государственного университета [f.a.fayziyeva@buxdu.uz](mailto:f.a.fayziyeva@buxdu.uz)

**Фармонова Фатима Фахриддиновна,**

Студент группы 2-1 эко-20 Бухарского государственного университета,  
[ffarmonova1@gmail.com](mailto:ffarmonova1@gmail.com)

**Аннотация:** В данной статье одной из актуальных проблем является увеличение количества автотранспортных средств в Бухарской области и их значение в загрязнении атмосферы и их влияние на окружающую среду, а также на организм человека.

**Ключевые слова:** Атмосфера, биосфера, литосфера, гидросфера, отходящие газы, смог, РЗМ, фотохимический смог, газовая эмиссия, биогеологический цикл.

### **KIRISH**

Hozirgi kunda nafaqat Buxoro viloyatida balki yer sayyorasidagi umumbashariy muammo sifatida avttransport sonining ortishi, sanoat korxonalar ishlab chiqarish suratining aholi demografiyasiga mutanosib ravishda ortishi buning salbiy oqibati sifatida yer sharini o`rab turgan barcha seferalar (biosfera, litosfera, gidrosfera va ayniqsa atmosferani) ifloslovchi asosiy manba sifatida halokatli ta`sir ko`rsatmoqda. Inson salomatligi uchun eng xavfli manbalardan biri avttransport vositalaridan chiqadigan zaharli gazlardir. Avtomobillar purkab chiqaradigan gazlarning tarkibiy qismi inson organizmiga halokatli ta`sir ko`rsatadi, azot oksidi esa fotokimyoviy smog hosil bo`lishida muhim omil hisoblanadi.

### **ASOSIY QISM**

Atmosfera-trik organizmlarni o`rab turgan havo qobig`i hisoblanib, u yerda hayot bo`lishi uchun muhim ahamiyatga ega va bir necha vazifalarni bajaradi:

Yerdagi organizmlarni quyoshdan keladigan zararli ultrabinafsha nurlaridan himoyalash

Yerdagi havo haroratini optimal darajada ushlab turish (ya`ni trik organizm hayot kechira olish harorati)

Moddalarning geologik davriy aylanishiga ishtirok etadi.

Atmosferaning kimyoviy tarkibining miqdor jihatdan o`zgarishiga yoki yangi yod moddalarning kirib kelishiga Atmosferaning ifloslanishi deyiladi. Keyingi paytlarda atmosferaning sun`iy ifloslanishida avtotransport birinchi o`rinni egallaydi (40%), energetika sanoati (14%), maishiy-kommunal, qishloq xo`jaligi (26%) ni tashkil etadi.[1]

Avtotransportning atmosfera havosini ifloslantiruvchi asosiy moddalari bo`lgan is gazi, uglevodorodlar, azot oksidlari, aldegidlar, ketonlar, akrolein, qo`rg`oshin va boshqalar aksariyat hollarda gigiyenik nuqtayi nazardan juda zararli hisoblanib, belgilangan me`yordan ortgan holda boiadi. Ichki yonuv dvigatellaridan chiqadigan qo`rg`oshin birikmalari 1m<sup>3</sup> atmosfera havosiga 1—2 mg.dan 4—5 mg.gacha yetadi, bunda albatta motorlarning ish rejimiga qarab, havoning ifloslanish darajasi o`zgarib turadi. Ma`lumotlarga binoan qishloqlardagi turar joylarda 1m<sup>3</sup> havo tarkibida qo`rg`oshin miqdori 0,1 dan 0,5 mkg.ga teng bo`lsa, shaharlar havosida 1 dan 5 mkg atrofida bo`ladi. Katta magistral atrofida 1 m<sup>3</sup> havo tarkibida 14—38 mkg qo`ig`oshin borligi aniqlangan.[3] Avtotransportning chiqindi gazlari atmosfera havosinigina emas, keyinchalik tuproqni ham ifloslantiruvchi omil bo`lib qoladi. Natijada tuproq mag`izidan o`simlik tarkibiga, hayvon va odam organizmiga o`tib unda yig`ilib boradi. Oqibatda qo`rg`oshin odam qonida yig`ilib, a`zolariga zaharli ta`sirini ko`rsatadi.

### 3.TADQIQOT VA NATIJALAR.

Davlat statistika qo`mitasi ma`lumotlariga ko`ra, 2021-yilning 1-yanvar holatiga respublikamizda jismoniy shaxslarga tegishli jami avtotransport vositalari soni 2 955 295 tani tashkil etmoqda.[4]

Bu ko`rsatkich hududlar kesimida jismoniy shaxslarga tegishli avtotransport vositalari soni:

Toshkent shahri 479 544 ta

Samarqand viloyati - 344 470 ta

Farg`ona viloyati - 302 771 ta

Toshkent viloyati-273 945 ta

Qashqadaryo viloyati - 241 171 ta

Andijon viloyati - 208 814 ta

Namangan viloyati - 201 443 ta  
Xorazm viloyati 199 858 ta  
Buxoro viloyati 195 093 ta  
Surxondaryo viloyati - 160 417 ta  
Qoraqalpog'iston R. - 121 950 ta  
Navoiy viloyati - 80 343 ta  
Jizzax viloyati 79 820 ta  
Sirdaryo viloyati - 65 658 t

Yuqoridagi ko'rsatkich 2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, avtotransport soni 3 579 383 tani tashkil etib, 1 yildan oshiqroq vaqt ichida 624088 taga oshganini ko'rish mumkin. O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslarga tegishli avtomobillar soni shulardan:[2]

- Yengil avtomobillar 3 342 039 (jami avtomobillarning 93,4 %);
- Yuk avtomobillar 216 274 (6,0 %);
- Avtobus va mikroavtobuslar 15 710 (0,4 %);
- Maxsus avtomobillar 5 360 (0,2%);

**Xulosa.** Takidlab o'tganimdek Respublikamizda 2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, avtotransport soni 3 579 383 tani tashkil etsa shularning 195 093 tasi (5.45% ) Buxoro viloyati hissasiga to'g'ri kelishini kurish mumkin. Avtotransport vositalari sonining ortib borishi tashqi muhitga ajralib chiqayotgan kanserogen moddalarning salmog'i ortishiga olib keladi.[5] Avtotransport vositalari atmosfera havosini azot oksidi bilan 40,5%, uglevodorodlar bilan 42% zararlantiradi. Havoga chiqarib tashlanadigan 100 mln. tonnaga yaqin is gazining 73,5 mln.tonnasi yoki 78% avtotransport vositalariga to'g'ri keladi. Shaharlar havosining 60% zaharli gazlar bilan ifloslanishi avtotransport hisobiga to'g'ri keladi.[6] Shunday qilib, hozirgi vaqtda atmosfera havosini ifloslantiruvchi manbalarga sanoat korxonalarini va ularning turli tarmoqlarini, avtomobil hamda boshqa transport vositalarini, qishloq xo'jaligiga tegishli vositalarni, keng ko'lamda ishlatilayotgan zaharli kimyoviy moddalarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Bularning hammasi insonning antropogen faoliyatidan kelib chiqadigan muammolardir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. S.M.Turobjonov, M.M.Niyazova, T.T.Tursunov, X.L.Pulatov. Sanoat chiqindilarini rekuperatsiya qilish texnologiyasi.O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyatinashriyoti Toshkent – 2011
2. Pranav Kumar , Usha Mina. Fundamentals of Ecology and Environment. Pathfinder Publication New Delhi, India-2018
3. A.Ergashev,T.Ergashev.Ekologiya,biosfera va tabiatni muhofaza qilish.Toshkent<Yangi asr avlodi>-2005y.
4. Yu.Shodimetov.Ijtimoiy ekologiyaga kirish.Toshkent <O‘qtuvchi>-1994y
5. Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanishga oid normativ-huquqiy hujjatlar to‘plami: — T.: Adolat. 2008.
6. Национальный доклад о состоянии природной среды Узбекистана. — Т: 2005, 2008.
7. Беспаметнов Г.П., Кротов Ю.А. Предельно допустимые концентрации химических веществ в окружающей среде. Справочник. — Л.: Химия, 1985.

---

# Research Science and Innovation House